

Konversion amaliyotlarini amalga oshiruvchi mijozlar uchun eslatma

Hurmatli mijozlar!

“Asia Alliance Bank” ATB bankimiz bilan hamkorlik qilganingiz uchun sizga minnatdorchilik bildiradi!
E’tiboringizga bir turdagi xorijiy valyutani boshqa turdagi xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish bo’yicha amaliyotlar Bank mijozlari (jismoniy va yuridik shaxslar) bilan ularning arizalari asosida quyidagi kurslarga muvofiq amalga oshirilishi haqida ma’lumot beramiz:

- fiksirlangan kurs, 100 000 AQSH dollari ekvivalentida o’rnatilgan limit doirasida.
- bozor kursi, o’rnatilgan limit yuqori.

Fiksirlangan kurslar bank tomonidan bitim kunidagi mahalliy va xalqaro valyuta bozorlaridagi valyuta kotirovkalaridan kelib chiqib, bank marjasini hisobga olgan holda quyidagi tartibda belgilanadi:

Valyuta juftliklari	Bank kursining marjasi	
	yuridik shaxslar uchun	jismoniy shaxslar uchun
- RUB ishtirokisiz barcha valyuta juftliklari uchun	0,5%	mobil ilovadagi kurslar orqali
- RUB ishtiroki bilan valyuta juftliklari uchun	2,0%	

Mijozlar bilan bozor kursi bo’yicha konvertatsiya amaliyotlari Bankning marjasi va komissiyasini (*agar mavjud bo’lsa*) hisobga olgan holda bitim kunidagi mahalliy va xalqaro valyuta bozorlaridagi valyuta kotirovkalaridan kelib chiqib, shuningdek, banklararo valyuta bozorida mavjud aloqa kanallari orqali hamkor-bank bilan bitim tuzish vaqtidagi kurs bo’yicha quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Valyuta juftliklari	Bank kursining marjasi	
	yuridik shaxslar uchun	jismoniy shaxslar uchun
RUB ishtirokisiz barcha valyuta juftliklari uchun, AQSh dollari ekvivalentida, shu jumladan:		
- 100 ming AQSh dollari 1 sentdan 1 million AQSh dollarigacha (shu jumladan)	0,4%	0,9%
- 1 million AQSh dollaridan ortiq	0,3%	0,8%
RUB ishtirokida valyuta juftliklari uchun, AQSh dollari ekvivalentida:		
- 100 ming AQSh dollari 1 sentdan 500 ming AQSh dollarigacha (shu jumladan)	1,5%	2,0%
- 500 ming AQSh dollari 1 sentdan 1 million AQSh dollarigacha (shu jumladan)	1,0%	1,5%
- 1 million AQSh dollaridan ortiq	0,5%	1,0%

Konvertatsiya amaliyotini amalga oshirish uchun ariza MBXO/Amaliyot boshqarmasi tomonidan har ish kuni soat 10-00 dan 15-00 gacha qabul qilinadi va bank tomonidan ariza qabul qilingan kundan boshlab 2 bank ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Konvertatsiya amaliyotlari quyidagi asosiy valyutalar bilan amalga oshiriladi: USD, EUR, GBP, CHF, JPY, RUB, CNY, AED, KZT, TRY.

Konvertatsiya bitimini tuzishda va Bank arizani bajargunga qadar mijoz konvertatsiya amaliyotini amalga oshirish va komissiyani (*agar mavjud bo’lsa*) to’lash uchun mablag’lar mavjudligini ta’minlashi shart.

Bank sizni bir turdagi xorijiy valyutani boshqa turdagi xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish bo’yicha xizmatlar ko’rsatish bo’yicha ommaviy oferta matnini diqqat bilan o’qib chiqishni, shuningdek, Bank tariflari bilan tanishib chiqishni taklif qiladi.

Eslatma: Bank marjasini aniqlashda arizada ko’rsatilgan xorijiy valyutaning dollar ekvivalenti ariza berilgan kundagi O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi rasmiy kursi bo’yicha hisoblanadi.